

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori **B.B.Ma’murov**
2026-y. sentabr





MUTAXASSISLIK (10.00.02-O‘zbek mumtoz adabiyoti) FANIDAN TAYANCH
DOKTARANTURAGA QABUL DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Ushbu dastur 10.00.01 - "O'zbek tili" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni mutaxassislik fanidan imtihon bo'yicha mutaxassislar, talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, talabgorning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talabalar, imtihon savollaridan namunalar keltirilgan.

Ushbu dastur institut Kengashining 2026-yil "28"
avgust - _____dagi 1 sonli majlisida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: X.A.Xaitov — BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
professori, f.f.d (DSc) 

U.S.Amonov — BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d
(PhD) 

Taqrizchilar: L.F.Sharipova - BuxDDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
professori, f.f.d (DSc) 

 **Sh.Sh.Nizomova** - BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d
(PhD)

KIRISH

Mazkur dastur Buxoro davlat pedagogika instituti 10.00.02-O'zbek mumtoz adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning mutaxassislik fanlaridan qabul dasturidir.

“O‘ZBEK FOLKLORI” fani bo‘yicha

Xalq og‘zaki ijodining xalq, millat qadriyatlari qatorida tutgan o‘rni. Xalq og‘zaki ijodining tarixi va taraqqiyot bosqichlari. O‘zbek folklorining tarkibiy qismlari, janrlari, xalq ijodkorlari, folklorshunoslik faniga hissa qo‘shgan olimlar. Respublika mustaqillikka erishganidan so‘ng xalq og‘zaki ijodiga va uni o‘rganishga bo‘lgan munosabatdagi ijobiy o‘zgarishlar, ularning natijalari. Fan vazifalarining belgilanishi va ahamiyati.

Xalq og‘zaki ijodi so‘z san‘ati sifatida. San‘at inson tafakkur salohiyatining natijasi ekanligi. Mahorat va fikriy kashfiyot san‘atning muhim belgilaridan biri xususida. Xalq og‘zaki ijodi namunalari mahorat, aqliy (fikriy) kashfiyot namunalarining badiiy ifodasi.

Xalq afsonalari. Afsona, rivoyat, naql atamalari haqida ma‘lumot. Ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Insonparvarlik g‘oyalari afsonalarning yaratilishida asos ekani. To‘maris va Shiroq rivoyatlarida Vatan mavzusi.

Maqol va matallar. Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o‘z va ko‘chma ma‘nolari. Maqollarning milliyligi va fikr ifodalashdagi uslubiy xususiyatlari. Maqollarning tasnif tamoyillari. Xalq maqollari va yozma adabiyot. Folklorizm haqida ma‘lumot. Matal haqida ma‘lumot. Matallarning maqollardan farqi. Matallar jonli va badiiy tilning uzviy qismi sifatida. Paremiologiya haqida ma‘lumot.

Topishmoqlar. Topishmoq - paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma‘rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poyetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlar). Topishmoq va chiston, muammo, ta'rix. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari. Istiora haqida ma‘lumot.

Askiya. Lof. Xalq dramasi. Askiya janrining o‘ziga xos belgilari. Askiya - o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiyaning payrov, gulmisiz, o‘xshatdim va boshqa turlari. So‘z o‘yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma‘lumot. Askiyachi ijodida omonim so‘zlardan foydalanish mahorati. Iyhom haqida tushuncha. Loflar - askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag‘a va uning turlari haqida ma‘lumot.

Xalq dramasi haqida ma‘lumot. Xalq dramasining janr xususiyatlari. Xalq dramasida kompozitsion ixchamlik, syujetning tez rivojlanishi. Dramada satira va yumorning o‘rni, ahamiyati. Xalq dramasida askiya va lof janrlarining belgilari. Satira va yumor haqida ma‘lumot.

Xalq qo'shiqlari. Xalq qo'shiqlari - xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan lirik janri sifatida. Qo'shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo'shiqlarining ularda aks etgan his-to'yg'ular yo'nalishi bo'yicha tasnifi. Mehnat qo'shiqlari va ularning turlari. Marosim qo'shiqlarida xalq qadriyatlari, rasm-rusurnlari ifodasi. Lirik qo'shiqlar. Tarixiy qo'shiqlar. Xalq qo'shiqlarida milliylik. Qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarning estetik tarbiyadagi o'mi. Qo'shiqlarda parallelizm, vazn, qo'fiya, badiiy til masalalari. Lirik haqida ma'lumot.

Xalq ertaklari. Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko'ra tasnifi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda xalqning tabiat muhiti, mifologik dunyoqarash ildizlari haqidagi tasavvurlari ifodasi. "Susambil", "Ovchi, ko'kcha va dono", "Bo'ri bilan Tulki" ertaklarida mazmun va badiiyat. Sehrli ertaklarning hayot muammolari bilan munosabati. "Ur tuqmoq", "Mohistara", "Yoriltosh" ertaklari tahlili. Hayotiy maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do'stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug'lanishi. "Uch og'a-ini botirlar", "Malikai Husnobod", "Zolim podsho", "Ziyod botir" kabi ertaklar tahlili. Badiiy adabiyotdagi epik tur haqida ma'lumot.

Latifalar. Latifa xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari. Sharq xalqlari latifalaridagi mushtaraklik. Nasriddin afandi timsoli. Nasriddin xalqning ideal qahramoni sifatida. Afandi obrazining yaratilishidagi ikki yo'nalish. Latifalarning badiiy qimmati. Ularning kompozitsion jihati. Latifalarning til xususiyatlari. Zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni.

Xalq dostonlari. Doston janri haqida ma'lumot. Doston - xalq og'zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o'mi. Xalq baxshilari haqida ma'lumot. Xalq dostonlarining ijro an'anasiga ko'ra (Samarqand, Xorazm, Farg'ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma'lumot. **Xalq dostonlarida turkumlik.** "Alpomish" dostoni. "Alpomish" - qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma'lumot. "Alpomish" dostoni haqida munozaralar tahlili. "Alpomish" dostonining to'liq matni nashri va uning ming yillik yubileyi yuzasidan ma'lumot. "Alpomish" dostonida yurt birligi ifodasi. Dostonda mifologik dunyoqarash ildizlarining o'mi va ahamiyati. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati.

Mumtoz matnlarning til xususiyatlari bilan bog'liq nazariy masalalar

Mumtoz matnlarni o'rganish metodologiyasi. Mumtoz asarlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish. Matn tili va uning adabiy til tarixini o'rganishdagi o'rni. Matn tilini tarixiy-qiyosiy aspektda o'rganish. Matn tilini o'rganishning nazariy masalalari. Matn uslubi masalalari. Tilshunoslikda va sharqshunoslikda shakllangan ilg'or metod va usullar. Ulardan foydalanishning optimal yo'li.

Asar qo'lyozma nusxalarini qiyosiy jihatdan o'rganish. Nusxalar o'rtasida yuzaga kelgan tekstologik farqlarni, matn tili bilan bog'liq yuzaga kelgan o'zgarishlarni ko'lyozma ko'chirilgan davr tili nuqtai nazaridan tahlil qilish.

Asarning til va uslubiy o'zgachaliklarini belgilovchi birliklarni aniqlay bilish va ularni tahlil etish. Asarning fonetik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar. Asarning leksik-semantik xususiyati bilan bog'liq masalalar va ularning yechimi. Asarning morfologik o'zgachaligi bilan bog'liq masalalar va ularning yechimi. Asarning sintaktik-stilistik xususiyati bilan bog'liq masalalar va ularning yechimi.

Klassik matn tili va hozirgi jonli tillar munosabati masalasi.

Mumtoz asarlarning badiiy xususiyatlari bilan bog'liq nazariy masalalar

Badiiy matn tushunchasi. Matn poetikasi. Poetikaning nazariy masalalari. Klassik tur va janrlar. Klassik janrlarning o'tmishda qo'llanilgan atamaları. O'tmish adabiyotshunosligi. Uning metod va yondashuvlari. Hozirgi adabiyotshunoslik, uning metod va yo'nalishlari. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida klassik matnlarni o'rganish bilan bog'liq holda yuzaga kelgan nazariy masalalar.

O'tmishda yaratilgan badiiy asarlarni tarixiy davrlar nuqtai nazaridan o'rganish. Adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi.

Xalq og'zaki ijodining eng eski namunalari, ularning manbalari. Xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning nazariy masalalari.

Yozma adabiyot va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar. Yozma adabiyotning klassik bosqichi. Klassik adabiyot tushunchasi. Uning muhim belgilari.

Mumtoz adabiyotni ilk manbalar, asar qo'lyozmalari, tarixiy asarlar, tazkiralari, o'sha davrlarda yashab o'tgan olim va shoirlarning ma'lumotlari asosida o'rganish.

Adabiyot nazariyasi fan sifatida. San'at - estetik hodisa. San'atning tabiati va turlari. San'atda inson ruhiyati masalasi. Badiiy adabiyot san'atning bir turi sifatida. Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'rnini; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari fanlari bilan aloqasi.

Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan. Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz Sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poeziya asoslari; G'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

Adabiyotning spetsifikasi. Adabiyot o'ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

Badiiy asar tarkibi. Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylilikning eng muhim mezon sifatida; poietik shaklning o'zgarib borishi; shaklbozlik muammosi; badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poietik unsurlar masalasi; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning

badiiy asar takribidagi poyetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

Badiiy asarda inavzu va g'oya tasnifi. Tematologiya. Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va o'tkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbligi; badiiy asar mavzusi va iste'dod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy g'oya va ijtimoiy g'oyaning o'ziga xos qirralari; mavzushunoslik; mavzu, g'oya, obraz va estetik ideal munosabati.

Badiiy tafakkur va badiiy obraz. Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqini; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so'z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi - maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; syujet va obraz munosabati.

Poyetik nutq xususida. Poyetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poyetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; Nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poyetik nutqda emotsionallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezon.

Adabiy tur va janrlar poyetikasi. Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo bo'lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirik va insonning ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirizm va drammatizm. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikomediya.

Ijodiy metod va uslub. Ijodiy metod va adabiy oqimlar. Romantizm va uning turlari. Romantizm orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Realizm va uning turlari. Realizm - haqqoniy tasvir. Modernizmning ichki oqimlari: ekzistentsializm, simvolizm, futurizm, syurrealizm, postmodernizm va boshqalar. Jahon san'at tarixida oqim va metodlar ko'pligi. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.

Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasi. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasiga manbalar; muallif "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poyetik olamining mahsuli sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishi.

Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari. Badiiy did masalasi; retsepsion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo'llari xususida; badiiy asarni kompleks tahlil etish usuli.

MINIMUM SAVOLLARI

1. Struktural tahlil metodining o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi.
2. Islomgacha bo'lgan davrdagi turkiy adabiyot.
3. O'zbek adabiyoti tarixida qasida va uning o'ziga xos belgilari.
4. E.Vohidov va xalq og'zaki ijodiyoti.
5. X- XII asrlar - badiiy adabiyot taraqqiyotida yangi bosqich
6. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik.
7. Biografik metod va yozuvchining ijodiy laboratoriyasi.
8. Yassaviy - ilk turk mutasavvifi va orifona adabiyot asoschisi.
9. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati.
10. O'zbek tanqidchiligida modernizmga munosabat
11. XIII asr va XIV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayot.
12. Shayxzoda - adabiyotshunos olim.
13. Adabiy ertaklarning taraqqiyot xususiyatlari va badiiy-kompozitsion xususiyatlari.
14. XV asming 1-yarmi o'zbek adabiyoti . Adabiy aloqalar. Tarjima adabiyoti.
15. Abdulla Qahhor - mohir hikoyanavis.
16. Maxtumquli she'riyati.
17. Alisher Navoiy - adabiyotshunos
18. Mirtemir - lirik shoir
19. Obraz, personaj, xarakter, tip.
20. Buxoro adabiy muhitining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari
21. Pirimqul Qodirovning ijodiy yo'li.
22. Adabiyot tarixini davrlashtirish tamoyillari.
23. Qul Ubaydiy adabiy merosi, mavzular mundariyasi
24. Abdulla Oripov she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
25. Qiyosiy-tarixiy metod nima?
26. Adabiy tanqid janrlari haqida ma'lumot
27. O'zbek adabiyoti tarixida tazkiranavislik
28. Rauf Parfi ijodida milliy birlik qayg'usining ifoda topishi.
29. Jahon she'riyatida vaznlar sistemasi
30. O'zbek adabiyoti tarixida devon tuzish an'analari.
31. Istiqlof davri o'zbek nasri taraqqiyotining asosiy tamoyillari
32. Adabiyotshunoslik metodlarining ijodiy metodlardan farqi
33. Sotsiologik metod va uning adabiyotdagi o'rnini
34. Qiyosiy-tipologik metodni ta'riflang
35. Formal metodga xos xususiyatlar
36. Germenevtik metod va uning tarixiy ildizlari
37. Psixologik va psixanalitik metodlarning asarni o'rganishdagi ahamiyati nimada?
38. Biografik metodni misollar asosida tushuntirib berib
39. Lingvistik metod haqida tushuncha
40. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Ilarakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", 2017 yil, 8 ievral).
3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kclajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.
4. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida ("Xalq so'zi" 2017 yil, 21 aprel).
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., 2008.
7. Karimov I. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. - T., 2010.
8. Arastu. Poyetika. Ahloqi kabir. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. - T.:Fan, 1987-2003.
10. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. -T.: O'zbekiston, 1993.
11. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. -T.: O'qituvchi, 2002.
12. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: O'qituvchi, 1995.
13. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2000.
14. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.-T.: O'qituvchi, 1979.
15. Quronov D. Va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: Akademnashr, 2010.
16. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
17. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -T.: Akademnashr, 2018.
18. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. -Toshkent: O'zbekiston ensiklopediyasi, 2008.
19. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: Mumtoz so'z, 2010.
20. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T.: Fan, 2009.
21. O'zbek folklori ocherklari. -T.: Fan, 1988.
22. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T. va boshqalar. - T.: Aloqachi, 2008.
23. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. - T. Fan, 1987-2003.
24. Komilov N. Tasavvuf. - T.: Movarounnahr - O'zbekiston NMIY, 2009.
25. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. -T.: O'zbekiston, 2016.
26. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (1-jild). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, ILBollaboyev -T.: Fan, 2003.
27. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvchi: N.Rahmonov. - T.: Fan, 2005, 2006.

28. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. -Samarqand: 2005.
29. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. -T.: O'z Yu Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
30. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: 2006.
31. Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U, Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: O'qituvchi, 1999.
32. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. -T., "Universitet", 2005.
33. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. -T.: Mumtoz so'z, 2014.
34. Fitrat. Chin sevis. -T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyoti va san'ati nashriyoti. 1997.
35. Abdulla Qodiriy asarlari: O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. Romanlar. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
36. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994-1995.
37. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. -T.: Fan, 1990-1995.
38. G'afur G'ulom. Asarlar. 12-tomlik. -T.: Fan, 1990-1995.
39. A.Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1989.
40. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. Besh jildlik. -T.: Fan, 1975-1994.
41. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969-1974.
42. Mirtemir. Asarlar. To'rt jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-1983.
45. Zulfia. Asarlar. Uch jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983-1986.
46. Asqad Muxtor. Asarlar. To'rt tomlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-1983.
47. Said Axmad asarlari: Saylanma. Uch tomlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980-1981.
48. Odil Yoqubov asarlari: Saylanma. Uch tomlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-1987.
49. Pirimqul Qodirov asarlari: Saylanma. Uch jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1988.
50. Erkin Voxidov asarlari: Saylanma. Ikki tomlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
51. Abdulla Oripov. To'liq asarlar to'plami. To'rt jildlik. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.
52. O'tkir Hoshimov. Saylanma. Ikki jildlik. -T.: Sharq, 1993.
53. Shukur Xolmirzayev. Uch jildlik. -T.: Sharq, 2003.
54. Rauf Parpi. Sabr daraxti. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.

55. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. -T.: Sharq, 1994.
56. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Roman. -T.: Sharq, 1994.
57. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. Roman. -T.: Sharq, 1997.
58. Shavkat Rahmon. Saylanma. -T.: Sharq, 1997.
59. Usmon Azimov. Saylanma. -T.: Sharq, 1995.

Internet saytlari:

60. www.alishernavoijy.uz
61. www.ziyo-net.uz
62. www.literature.uz
63. www.kutubxona.uz

Sinov topshirish shakli	Og‘zaki
Ajratilgan vaqt	25 daqiqa
Savollar soni	5 ta
Har bir savol uchun belgilangan ball	20 ball
Maksimal ball	100 ball

Mutaxassislik fanidan minimiim lopshirishda tadqiqotchilar bilimini baholash

MEZONLARI

Minimum imtihonida tanlangan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi fanlardan sinov o'tkaziladi, baholash mezonlari 0 ball dan 100 ballgachani tashkil qiladi. Sinovda tadqiqotchining tanlangan mutaxassislik bo'yicha nazariy bilimi aniqlanib baxolanadi.

Har bir savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ihniy atamalarni bilish darajasi;
- ihniy mushohada yuritish iqtidori to'la ko'rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilgan;
- o'z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda etgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga *a'lo* baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, *yaxshi* baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, *qoniqarli* baho qo'yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.

JAMI: 100 ball, shundan:

- 1-savolga javob: maksimal - 25 ball;
- 2-savol javob: maksimal - 25 ball;
- 3-savol javob: maksimal - 25 ball.
- 4- savol javob: maksimal - 25 ball.

II 1) Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan, birinchi manbaalarda bayon qilingan fikrlar har tomonlama chuqur asoslanilgan javoblarga ja'mi 86-100 ball - *a'lo* baho qo'yiladi.

2) Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, ja'mi 71-85 ball- *yaxshi* baho qo'yiladi.

3) Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada adabiyotlardan foydalangan bo'lsa, ja'mi 56-70 ball- *qoniqarli* baho qo'yiladi.

4) Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo'lsa-da javob berilmagan, tegishli ilmiy-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun 56 dan past ball - *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.